



ITALYAN TILIDA ARTIKLLAR

Xodjiyeva Gulchehra Norovna

SAMDCHTI ispan-italyan tillari kafedrası o'qituvchisi

Ro'zimurodova Madina Zuhridin qizi

SAMDCHTI italyan tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Abstract: Artikl — bu otdan oldin keladigan so'z bo'lib, otning: aniq yoki noaniq ekanini jinsini (erkak/ayol) birlik yoki ko'plikda ekanini ko'rsatadi. Italyan tilida artikllar 3 xil bo'ladi: Aniq artikl (Articolo determinativo), Noaniq artikl (Articolo indeterminativo), Artikllar - aniq bir narsa haqida gapirilganda ishlatiladi. O'zbekchadagi: “bu”, “o'sha”, “ma'lum” ma'nosiga yaqin.

Keywords: Articolo determinativo, articolo indeterminativo, maschile singolare, maschile plural.

Italyan tilida artikllar: Artikl — bu ot bilan chambarchas bog'langan yordamchi so'z bo'lib, u otning aniqlik darajasi, jinsi, soni va ayrim hollarda fonetik xususiyatlarini ifodalaydi. Italyan tilida artikllar mustaqil ma'no anglatmaydi, balki ot bilan bir butun birlik hosil qiladi. Artikllarning 2xil turi mavjud:

1. Articolo determinativo (aniq artikl)

2. Articolo indeterminativo (noaniq artikl)

Aniq artikllar va ularning qo'llanilishi

Aniq artikllar oldindan ma'lum, aniqlangan yoki kontekstda tushunarli bo'lgan predmet va shaxslarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ko'pincha umumiy tushunchani bildiruvchi otlar bilan ham qo'llanib, butun sinfni anglatishi mumkin.

Erkak jinsdagi aniq artikllar:

il – oddiy undosh bilan boshlanuvchi otlar oldidan

lo – s+undosh bilan

lo- ps bilan boshlanuvchi otlar oldidan

lo- z bilan boshlanuvchi otlar oldidan

lo-gn bilan boshlanuvchi otlar oldidan

lo- pn bilan boshlanuvchi otlar oldidan

lo-y bilan boshlanuvchi otlar oldidan

l' – unli bilan boshlanuvchi otlar oldidan

i va **gli** – ko'plik shakllar

Ayol jinsdagi aniq artikllar:

la – undosh bilan boshlanuvchi otlar oldidan



l' – unli bilan boshlanuvchi otlar oldidan

le – ko'plik shakli

Aniq artikllar geografik nomlar, mavhum tushunchalar, kundalik buyumlar va umumlashtirilgan ma'noda keng qo'llaniladi.

Misol uchun:

Il gelato

i gelati

l'amico

gli amici

lo straniero

gli stranieri

lo zucchero

gli zuccheri

lo psicologo

gli psicologi

lo yogurt

gli yogurt

la camera

le camera

l'amica

le amiche

Noaniq artikllarning grammatik xususiyatlari

Noaniq artikllar noma'lum yoki birinchi marta tilga olinayotgan predmet yoki shaxsni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular semantik jihatdan "bir" soniga yaqin bo'lsa-da, grammatik jihatdan artikl sifatida qaraladi.

Noaniq artikllarning shakllari

Erkak jins: un, uno- birlik

Dei,degli -ko'plik

Ayol jins: una, un'-birlik

Delle-ko'plik

Erkak jinsdagi noaniq artikllar:

Un – oddiy undosh bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Un- unli bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Un- h bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Uno- s+undosh bilan

Uno- z bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Uno- ps bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Uno- y bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Dei,degli-ko'plik shakllar

Ayol jinsdagi noaniq artikllar:

Una- undosh bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Un'- unli bilan boshlanuvchi otlar oldidan

Delle-ko'plik shakli

Misol uchun:

Un libro

Un amico

Una strada

Un'amica



Uno student

Uno yogurt

Italyan tilida ham xuddi o'zbek tilidek istisnolar mavjud:

Agar so'zlar -e harfi bilan tugasa,artikil ularning jinsini yoki sonini aniqlab beradi

La carne-ayol jins,birlik(F.S)

Un pesce-erkak jins,birlik(M.S)

Le colline-ayol jins,ko'plik (F.PL)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, italyan tilidagi artikllar grammatik tizimning ajralmas va muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ular ot bilan uzviy bog'lanib, nutqda predmet va hodisalarning aniqlik darajasini, jinsini hamda sonini ifodalash vazifasini bajaradi. Artikllarning to'g'ri qo'llanishi gapning mantiqiyliigi, aniqligi va tushunarililigini ta'minlaydi hamda italyan tilidagi savodli nutqning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sanaladi. Italyan tilida aniq, noaniq va qisman artikllarning mavjudligi tilning boy grammatik imkoniyatlarini namoyon etadi. Aniq artikllar ma'lum va oldindan tanish bo'lgan predmetlarni ifodalashda xizmat qilsa, noaniq artikllar noma'lum yoki birinchi marta tilga olinayotgan predmetlarni bildiradi. Qisman artikllar esa aniq bo'lmagan miqdorni ifodalab, nutqda miqdoriy noaniqlikni ifodalashga imkon yaratadi. Ushbu artikl turlarining har biri o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Latino,M.Muscolino. "Una grammatica per tutti" .Milano: Edizioni Linguistica,2018. B. 92
2. Patrizia Guida, Maria Martina. "Esercitarsi". Roma: Edizioni Grammaticali, 2017. B. 65.
3. Grammatica italiana. Diffusione Scolastica S.R.L. – Novara, 2009. B. 33
4. Patrizia Guida, Maria Martina. "Esercitarsi". Roma: Edizioni Grammaticali, 2017. B. 55.